



JADIDCHILIK DAVRIDAGI AXLOQIY TARBIYA VA UNING MAKTAB O'QUVCHILARI ORASIDA HUQUQBUZARLIKLARNI OLDINI OLISHDAGI POTENTIALI

Juraev Jasur Maxsutovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi

universiteti tinglovchisi

Annotasiya: Ushbu maqola jadidchilik davrida shakllangan axloqiy tarbiyaning mazmun-mohiyatini o'rganish va uning bugungi maktab o'quvchilari o'rtasidagi huquqbuzarliklarni oldini olishdagi imkoniyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Jadid maorifparvarlari – Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy va boshqalarning ta'lim-tarbiya sohasidagi faoliyatida axloq, insoniylik, ma'rifat va jamiyat oldidagi mas'uliyat kabi tamoyillar ustuvor o'rin egallagan.

Ushbu g'oyalar orqali insonni har tomonlama rivojlantirish, uning huquq va burchlarini anglatish, shaxsiy tartib-intizom va fuqarolik ongini shakllantirish maqsad qilingan. Bugungi kunda maktab o'quvchilari o'rtasida sodir etilayotgan huquqbuzarliklar, agressivlik, internet xavflari, muomala madaniyatining pasayishi va ota-ona nazoratining etishmasligi singari muammolar fonida jadidlarning axloqiy tarbiyaga oid qarashlari yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada jadidlar ta'lim tizimidagi axloqiy yo'nalishlar, ularning darsliklari, tarbiyaviy uslublari va maktab muhitida yaratilgan ma'naviy muhit tahlil qilinadi. Shuningdek, jadidchilik tajribasini zamonaviy pedagogika va profilaktika tadbirlari bilan integrasiya qilish orqali yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish, ularda fuqarolik javobgarligi, huquqiy ong va ijtimoiy faollikni yuksaltirishga doir aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.



Ushbu maqola maktab va oila hamkorligidagi profilaktik ishlar, ma'naviy-ma'rifiy darslar hamda huquqiy tarbiyani qayta isloh etishga xizmat qilishi mumkin.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению содержания нравственного воспитания, сформировавшегося в эпоху джадидизма, и анализу его возможностей в профилактике правонарушений среди сегодняшних школьников. Такие принципы, как этика, человечность, просвещение и ответственность перед обществом, стали приоритетными в образовательной деятельности джадидских просветителей – махмудходжи бехбуди, абдурауфа Фитрата, Хамзы Хакимзаде Ниязи и других.

Посредством этих идей ставится цель всестороннего развития человека, выражения его прав и обязанностей, формирования личной дисциплины и гражданского сознания. Сегодня на фоне таких проблем, как правонарушения среди школьников, агрессивность, интернет-опасности, снижение культуры обращения и отсутствие родительского контроля, взгляды джадидов на нравственное воспитание приобретают все большее значение. В этой статье будут проанализированы моральные ориентации в системе образования джадидов, их учебники, методы обучения и духовная среда, созданная в школьной среде. Также разработаны конкретные предложения и рекомендации по профилактике правонарушений среди молодежи, повышению в них гражданской ответственности, правосознания и социальной активности путем интеграции опыта джадидизма с современной педагогикой и профилактическими мероприятиями.

Эта статья может служить для реформирования профилактической работы, духовно-просветительских занятий и правового воспитания в сотрудничестве школы и семьи.

Annotation: This article is devoted to studying the essence of moral education, which was formed during the period of jadidism, and analyzing its potential in preventing violations among today's schoolchildren. Principles such as ethics,



humanity, enlightenment and responsibility to society have been prioritized in the educational activities of Jadid maoriists – Mahmudhaja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyazi and others.

Through these ideas, it is aimed at the comprehensive development of a person, the meaning of his rights and duties, the formation of personal discipline and civil consciousness. Against the background of such problems as violations among schoolchildren today, aggressiveness, internet risks, a decrease in the culture of treatment and a lack of parental control, the views of jadids on moral education are becoming more relevant. This article analyzes the moral directions in the Jadid educational system, their textbooks, educational methods and the spiritual environment created in the school environment. Also, by integrating the experience of jadidism with modern pedagogical and preventive measures, specific proposals and recommendations have been developed for the Prevention of offenses among young people, raising civil responsibility, legal consciousness and social activity in them.

This article can serve as preventive work in school and family cooperation, spiritual and educational lessons, as well as reform of legal education.

Kalit so'zlar: jadidchilik, axloqiy tarbiya, ma'naviyat, yoshlar tarbiyasi, zamonaviy pedagogika, profilaktika ishlari, shaxsiy intizom, yoshlarda ijtimoiy faollik.

KIRISH

Jadidchilik harakati — XIX asr oxiri va XX asr boshida Turkiston (hozirgi O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va boshqa markaziy osiyolik hududlar)da yuzaga kelgan ma'rifatparvarlik va ta'lim-tarbiya islohotlari harakati bo'lib, unda yangicha uslublar, yangi maktablar, ma'naviy-ma'rifiy kitoblar va jamiyatni isloh etishga intilish asosiy o'rin egallagan. Ushbu harakat – faqat ilmiy-harbiy yoki siyosiy balki axloqiy tarbiya masalasini ham markaziy o'ringa qo'ygan.



Abdurauf Fitrat “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarida axloqiy tarbiyani a’lo sifatli inson tarbiyasining uch yo’nalishidan biri sifatida ko’rgan: jismoniy, aqliy va axloqiy. Axloqiy tarbiya unda eng asosiy yo’nalish deb hisoblangan. Fitrat ta’kidlaganidek, agar axloqiy tarbiya yetarli bo’lmasa, insonning aqliy va jismoniy kuchlari salbiy maqsadlarda ishlatilishi mumkin¹.

Bugungi globallashuv va raqamli transformasiya sharoitida yosh avlod tarbiyasi, ularning huquqiy ongi va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirish masalasi jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Ayniqsa, maktab yoshidagi o’quvchilar o’rtasida huquqbuzarliklar, yomon odatlarga moyillik, agressiv xulq-atvor, virtual dunyo ta’siri, tartib-intizomning susayishi va muomala madaniyatining pasayishi singari salbiy holatlar ko’payib borayotgani ta’lim-tarbiya tizimida yangi yondashuvlarni talab etmoqda.

Ushbu muammolarni bartaraf etishda milliy ta’lim tarixi va an’analoriga tayanib, ularning ilg’or g’oya va yutuqlaridan ilhom olish katta ahamiyatga ega. Xususan, XX asr boshlarida yurtimizda yuksak ma’naviy-ma’rifiy uyg’onishni boshlab bergan jadidlar harakati nafaqat ta’lim mazmuni, balki axloqiy tarbiya borasida ham chuqur ijtimoiy g’oyalarni ilgari surgan. Mahmudxo’ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy va boshqa jadid maorifparvarlar o’z faoliyatlarida yoshlarni ilm-fan bilan birga axloq-odob, milliy o’zlik, vatanparvarlik va jamiyat oldidagi mas’uliyat ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratishgan. Jadidlar ta’lim tizimida axloqiy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida qaralgani, ular maktabni nafaqat bilim manbai, balki shaxs kamolotini ta’minlovchi ma’naviy muhit deb bilgani bugungi kunda ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan. Ularning tarbiyaviy uslublari – o’quvchilarga huquq va majburiyatni anglatish, insoniylikni targ’ib qilish, faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish orqali huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qilgan. Shu nuqtai nazardan qaralganda, jadidlar merosini qayta tahlil etib, uni zamonaviy ta’lim tizimiga integrasiya qilish

¹ https://inlibrary.uz/index.php/imjrd/article/view/86402?utm_source. (мурожаат вақти: 10.10.2025 й)



bugungi profilaktika ishlarini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotda jadidchilik davridagi axloqiy tarbiyaning mazmuni, unda ilgari surilgan insonparvarlik, odob-axloq va ijtimoiy mas'uliyat g'oyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, ularning bugungi maktab o'quvchilari o'rtasida sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning oldini olishdagi amaliy qiymatini ochib berish, jadidlar qarashlarini zamonaviy pedagogik va profilaktik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlari o'rganiladi. Shuni aytish kerakki jamiyatda sog'lom va faol fuqarolarni tarbiyalash, ta'lim tizimida ma'naviy muhitni mustahkamlash hamda oila-maktab hamkorligini kuchaytirish nuqtai nazaridan ham ayni vaqtda katta dolzarblikka egadir.

Darhaqiqat, bugungi globallashuv davrida butun dunyoda keskin g'oyaviy kurashlar va turli mafkuralarning o'zaro to'qnashuvi, demokratiya yoki turli diniy ta'limotlar qarashlari bilan niqoblangan yovuz g'oyalarni singdirishga intilish kuchayib bormoqda. Dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari insoniyat xavfsizligi va mamlakatlar barqarorligini ta'minlash bilan aloqador muammolarni kun tartibiga olib chiqmoqda. Tobora avj olib borayotgan ma'naviy xurujlar, yot g'oya va mafkuralar, zararli axborotlar oqimining ta'sirida inson qalbi va ongini zabt etishga harakat ham kengayib bormoqda

Bunda ommaviy axborot vositalari orqali psixologik ta'sir o'tkazishning yangidan-yangi usullaridan foydalanadilar. Xususan, milliy hayotimizga xos muayyan xususiyatlarni ochiqdan-ochiq qoralash, erga urish yoki ayrim tarixiy voqea hodisalarni umuman bo'lmagandek, jahon madaniyati, ilmu-faniga ulkan hissa qo'shgan ulug'allomalarimizni bizga aloqasi yo'qdek qilib ko'rsatishga urinishlar mavjud.

Shunday vaziyatda har bir inson o'zining erkin va mustaqil fikriga, asrlar davomida shakllanib kelgan milliy-ma'naviy qadriyatlariga, keng dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, turli ko'rinishdagi ma'naviy tahdidlarga bardosh berishi amrimahol.



Globallashuvning mamlakatlar iqtisodiy siyosati va ma'naviyatiga o'tkazishi mumkin bo'lgan ijobiy va salbiy ta'siri Hindistonning mashhur davlat arbobi Mahatma Gandining quyidagi so'zlarida yaxshi ifodalangan: "men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga ochilgan eshik va derazalarimdan kiraètgan havo dovul bo'lib uyimni ag'dar-to'ntar qilib tashlashi, o'zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman".

Ma'naviyatni ham bir uyga to'plangan boylikka qiyoslasak, tashqaridan kiraètgan shamol uy ichidagi narsalarni ostin-ustin qilib tashlashini hech bir xonadon sohibi istamaydi. Xuddi shu kabi biz ham yot g'oyalar, oqimlar va mafkuralar ma'naviyatimizga vayronkor ta'sir o'tkazishiga qarshi himoya choralari ko'rishimiz tabiiy. Shunday g'oyalar borki, ular ochiq chehra bilan eshigimizni taqillatib, kirib keladi. Shunday g'oyalar ham borki, ular "o'g'ri" kabi tuynuk qidiradi. "Oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarur. Xususan milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim". Bugun biz harbiy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarimizni har tomonlama bilimli, keng dunyoqarashga ega, Vatan tarixiga cheksiz hurmat, buyuk alloma va mutafakkirlarga munosib avlod, sarkarda bobolarimizga munosib davomchi sifatida mustaqil haètga kirib borishlarini istar ekanmiz, avvalo, ularga ijtimoiy fanlarni chuqur o'rgatishimiz, ularning ongi va qalbida Vatanimiz tarixiga cheksiz hurmat-ehtirom tuyg'ularini yanada rivojlantirishimiz darkor. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev: "bir haqiqatni hech qachon unutmaylik: biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz. Biz – hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan



qo'rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azmu shijoatli, buyuk xalqmiz" deb alohida ta'kidlaydi².

Bugun barchamiz bir tanu bir jon bo'lib mamlakatimizni yanada rivojlantirish, Vatanimiz nomini dunyoga tanitish uchun barcha kuch va imkoniyatlarimizni "Yangi O'zbekiston" atrofida birlashtirishimiz darkor. Yangi O'zbekiston – barchamizning ezgu orzumiz, mehnatkash, tinchliksevar xalqimizning orzusi. Unda xalqimizning azaliy umid-niyatlari, yuksalish sari intilishlari o'ziga xos tarzda aks etmoqda. Zero, bu orzu o'z vaqtida Behbudiy va Avloniy, Hamza va Munavvarqori, Fitrat va Cho'lpon, Abdulla Qodiriy va Usmon Nosir kabi minglab jadid bobolarimizni uyg'otdi Vatanimiz o'zining ko'p asrlik tarixi davomida ko'plab mash'um xatarlarni o'z boshidan o'tkazgan. Shunday asoratlar tufayli tilimiz, dinimiz va ma'naviyatimiz bir paytlar qanday xavf ostida qolganini barchamiz yaxshi bilamiz. Ana shu fojiali o'tmish, bosib o'tgan mashaqqatli yo'limiz barchamizga saboq bo'lishi, bugungi voqelikni teran tahlil qilib, mavjud tahdidlarga nisbatan doimo ogoh bo'lib yashashga da'vat etishi lozim.

Xalq tarixi davomida ta'lim-tarbiya tizimi jamiyatning ma'naviy, axloqiy va huquqiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. XX asrning boshlarida O'rta Osiyoda paydo bo'lgan jadidchilik harakati ta'limda yangi yondashuvlarni joriy etish bilan birga, yoshlarni axloqiy va ma'naviy jihatdan tarbiyalashga katta ahamiyat berdi. Jadidchilik o'z davrida xalq ta'limini modernizasiya qilishga uringan va shu orqali jamiyatda huquqbuzarliklarni kamaytirishda muhim rol o'ynagan. Ayniqsa, maktab o'quvchilari orasida axloqiy tarbiyaning o'sishi va huquqiy ong shakllanishi jadidchilik g'oyalari asosida mustahkamlandi. Shuning uchun mazkur referatda jadidchilik davrida axloqiy tarbiyaning mazmuni, usullari va uning maktab o'quvchilari orasida huquqbuzarliklarni oldini olishdagi samaradorligi tahlil qilinadi.

Jadidchilik XVIII–XIX asrlar o'rtasida musulmon sharqida vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy islohotlar harakati bo'lib, uning asosiy maqsadi xalq

² https://www.president.uz/uz/2208?utm_source



hayotini zamonaviylashtirish edi. Jadidlar ta'lim tizimini an'anaviy maktablardan (mudarrisxona va maktablardagi qoida) zamonaviy maktablarga aylantirishga harakat qilishdi. Ular fanlar – matematika, tarix, tabiatshunoslik kabi fanlarning yangi usullarda o'rgatilishini, rus va Evropa ta'lim tizimidan ilhomlanib, milliy ta'limni takomillashtirishni ko'zladilar.

Jadid maktablarining asosiy o'ziga xosligi – ularda axloqiy va ma'naviy tarbiyaga katta e'tibor qaratilishi edi. Ularning ta'lim dasturlarida odob-axloq, insoniylik, adolat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi qadriyatlar ta'limning muhim qismi sifatida joy olgan.

Jadidlar ta'lim jarayonida faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, o'quvchilarni axloqiy jihatdan ham tarbiyalashga uringanlar. Axloqiy tarbiyaning asosiy yo'nalishlari quyidagilar edi:

- **Adolat va mas'uliyatni o'rgatish:** jadid maktablarida o'quvchilarga o'z harakatlari uchun javobgarlikni his qilish va adolatli bo'lish g'oyalari singdirilgan³.

- **Vatanparvarlik va jamiyatga xizmat qilish:** yoshlarga Vatanga sadoqat va jamiyat manfaati uchun xizmat qilish ma'naviy-axloqiy vazifa sifatida tushuntirilgan⁴.

- **Mehnatsevarlik va intizom:** har bir insonning mehnatga e'tibor qaratishi va hayotda intizomli bo'lishi muhimligi ta'kidlangan.

- **Inson huquqlarini hurmat qilish:** jadidlar insonning qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilish zarurligini ta'limning asosiy printsiplaridan biri sifatida qarashgan⁵.

Bu usullar nafaqat ustozlar tomonidan o'quvchilarga ta'lim berishda, balki maktablarda turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali ham amalga oshirilgan.

³ Muhammadjonov, A. Jadidchilik va uning ma'naviy asoslari, Toshkent: fan, 2016

⁴ Ziyoev, X. O'zbekistonda jadidchilik harakati tarixidan, T.: Sharq, 2001

⁵ Raximov, Sh. Jadid maktablari va ularning tarbiyaviy ahamiyati, T.: Universitet, 2019



Huquqbuzarliklarni oldini olishda axloqiy tarbiyaning o'rni katta. Yoshlarda ma'naviy etuklik va huquqiy ong shakllansa, ular jamiyat qoidalariga rioya qilishga moyil bo'ladi. Jadidchilikdagi ta'lim va tarbiya:

- **Huquqiy ongning shakllanishi:** jadid maktablari o'quvchilarga fuqarolik huquqlari va burchlari haqidagi bilimlarni etkazgan, bu esa yoshlar o'rtasida huquqiy madaniyatni oshirgan⁶.

- **Jamiyatdagi adolat va tenglik:** jamiyatdagi barcha odamlarning adolat va tengligi tushunchasi jamiyatdagi barcha odamlarning adolat va tengligi tamoyillari asosida tarbiyalanadi⁷.

- **Javobgarlik va intizom hissini kuchaytirish:** maktablarda jadidlar tomonidan joriy etilgan tartib va intizom yoshlarning o'z harakatlari uchun mas'uliyatni his qilishlariga xizmat qilgan⁸.

- **Jamiyat bilan bog'liqlik hissi:** vatanparvarlik va jamiyatga xizmat qilish g'oyalari yoshlarni huquqbuzarliklarga moyil bo'lishdan himoya qilgan⁹.

Shu bilan birga, odamlar inson huquqlarini hurmat qilishlariga, targ'ibot uchun mas'ul ekanliklariga, adolat va zamonaviy g'oyani himoya qilishlariga amin bo'lishlari kerak.

XULOSA

Jadidchilik davrida axloqiy tarbiya maktab o'quvchilarida huquqbuzarliklarni oldini olishda katta samara bergan. Jadidlar ta'lim tizimini modernizasiya qilish bilan birga, yoshlarni ma'naviy jihatdan barkamol qilib, jamiyatga faol va mas'uliyatli a'zolar sifatida tarbiyalashga katta ahamiyat berishgan. Ularning ta'lim-tarbiyadagi yondashuvlari yoshlarda huquqiy ong va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirib, huquqbuzarliklarni kamaytirishga xizmat qilgan. Bugungi kunda ham

⁶ Abdullaeva, N. Jadidlar ta'lim-tarbiya nazariyasida inson huquqlari masalasi, // "Ma'Rifat va taraqqiyot" jurnali, №4, 2020.

⁷ Abdullaeva, N. Jadidlar ta'lim-tarbiya nazariyasida inson huquqlari masalasi, // "Ma'Rifat va taraqqiyot" jurnali, №4, 2020.

⁸ A'zamova, G. Jadidchilikda ijtimoiy adolat g'oyasi, // "ijtimoiy fanlar" jurnali, №2, 2018.

⁹ Rahmonov, U. Modern ta'lim tizimida jadidlar tajribasi, Toshkent, 2021.



jadidchilikning g'oyalari va axloqiy tarbiya kontsepsiyasi ta'limda muhim o'rin tutadi va huquqbuzarliklarni oldini olishda samarali vosita bo'lishi mumkin. Jadidchilik davridagi axloqiy tarbiya maktab o'quvchilari orasida huquqbuzarliklarni oldini olishda muhim ahamiyat kasb etgan. Jadidlar ta'limni modernizasiya qilish bilan birga, yoshlarni ma'naviy jihatdan barkamol qilishga e'tibor qaratishgan.

Bu yoshlarning huquqiy ongini rivojlantirish va jamiyatda mas'uliyatli fuqarolar sifatida tarbiyalanishiga sabab bo'lgan. Hozirgi zamonda ham jadidchilik g'oyalari ta'lim jarayonida huquqbuzarliklarni kamaytirishda samarali vosita sifatida qo'llanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M. Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining kun tartibi. 2020 yil 24 yanvar kuni yil. www.uza.uz
2. Sh.M. Mirziyoyev. Yosh O'zbekiston strategiyalari. "O'zbekiston", 2021 yil
3. I. A. Karimov. Yuksak ma'naviyat-bu ta'limotdir. T." Ma'naviyat " (2016).
4. Muhammadjonov, A. Jadidchilik va uning ma'naviy asoslari, Toshkent: fan, 2016.
5. Ziyoev, X. O'zbekistonda jadidchilik harakati tarixidan, T.: Sharq, 2001.
6. Raximov, Sh. Jadid maktablari va ularning tarbiyaviy ahamiyati, T.: Universitet, 2019.
7. Abdullaeva, N. Jadidlar ta'lim-tarbiya nazariyasida inson huquqlari masalasi, // "Ma'Rifat va taraqqiyot" jurnali, №4, 2020.
8. Karimov, I. Tarix saboqlari va istiqbol yo'li, T.: O'zbekiston, 1998.
9. A'zamova, G. Jadidchilikda ijtimoiy adolat g'oyasi, // "ijtimoiy fanlar" jurnali, №2, 2018.
10. Rahmonov, U. Modern ta'lim tizimida jadidlar tajribasi, Toshkent, 2021.
11. Ergashev, B. Jadid maktablari va vatanparvarlik tarbiyasi, Toshkent, 2017.